




2021- yilning yanvar-avgust oylari uchun Jizzax viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Jizzax viloyatida jami **1849,7** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.


Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.09.2020- yil	01.09.2021- yil	
Jizzax viloyati	1989	2145	107,8
Jizzax sh.	863	925	107,2
tumanlar:			
Arnasoy	54	61	113,0
Baxmal	72	74	102,8
G'allaorol	122	142	116,4
Sh. Rashidov	354	364	102,8
Do'stlik	58	68	117,2
Zomin	118	130	110,2
Zarbdor	93	106	114,0
Zafarobod	25	27	108,0
Mirzacho'l	47	52	110,6
Paxtakor	75	84	112,0
Forish	64	73	114,1
Yangiobod	44	39	88,6

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.09.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)




Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh. (43,2 %), Sh. Rashidov (17,0 %) va G'allaorol (6,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

83,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **119,7** % bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **5,2** % punktga kamaydi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jizzax shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 11,2 %), Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 9,7 %), Zafarobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 1,2 %), ga to'g'ri keldi




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **70,5 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-avgust oylari ko'rsatkichlariga nisbatan **0,8 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **103, %** ni tashkil etgan holda **1304,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,0 %** ni tashkil etdi yoki **462,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **104,4 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **44,7** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1805,0** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,4 %** va **97,6 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-avgust oylarida**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **83,2 %** i yoki **1538,7** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

83,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **57,4** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **3,7 %** ni tashkil etdi

3,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1065,2** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **69,2 %** ni tashkil etdi.

69,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **416,1** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **27,0 %** ni tashkil etdi.

27,1 %




**2021- yilning yanvar-avgust oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Jizzax viloyati	1849,7	104,2	1538,7
Jizzax sh.	698,1	100,3	580,8
tumanlar:			
Arnasoy	26,8	103,3	22,3
Baxmal	61,6	102,3	51,2
G'allaorol	124,2	100,4	103,3
Sh. Rashidov	336,6	123,6	280
Do'stlik	51,5	120,3	42,8
Zomin	131,6	81,2	109,5
Zarbdor	85,6	101,7	71,2
Zafarobod	103,6	184,4	86,2
Mirzacho'l	36,5	105,4	30,4
Paxtakor	80,9	60,5	67,3
Forish	66,9	116,4	55,6
Yangiobod	45,8	171,7	38,1

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,2 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **25,5 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **18,3 %** punktga ko'payib, **67,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **7,2 %** punktga ko'payib, **30,0 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **21,6 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **16,2 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,7 %** (**14,6 %** punktga ko'payib) hamda norasmiy sektorning ulushi **1,7 %** (**1,6 %** punktga ko'paydi)ni tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibiga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **16,6 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **96,6 %** (**16,6 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.

ulushi, % da



2020- yil
yanvar-avgust



2021- yil
yanvar-avgust



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-avgust oylarida

mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Jizzax viloyati	1849,7	1530,8	210,2	108,7
Jizzax sh.	698,1	577,8	79,3	41,0
tumanlar:				
Arnasoy	26,8	22,2	3,0	1,6
Baxmal	61,6	51,0	7,0	3,6
G'allaorol	124,2	102,8	14,1	7,3
Sh. Rashidov	336,6	278,6	38,2	19,8
Do'stlik	51,5	42,6	5,9	3,0
Zomin	131,6	108,9	15,0	7,7
Zarbdor	85,6	70,8	9,7	5,1
Zafarobod	103,6	85,7	11,8	6,1
Mirzacho'l	36,5	30,2	4,1	2,2
Paxtakor	80,9	67,0	9,2	4,7
Forish	66,9	55,3	7,7	3,9
Yangiobod	45,8	37,9	5,2	2,7


*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



7

Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jizzax shahrida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **37,8** % i yoki **698,1** mlrd. so'm), shuningdek, Sh. Rashidov tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **18,2** % i yoki **336,6** mlrd. so'm), G'allaorol tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **6,7** % i yoki **124,2** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.

**Jizzax viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (72) 221-53-73